



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI:
XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

2-kitob

**Toshkent
2024-yil 30-sentabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
Michigan davlat universiteti (AQSH)
Anqara Boshkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot markazi (Turkiya)
Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI: XALQARO
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

2-kitob

**Toshkent
“MUMTOZ SO‘Z”
2024**

UO‘K: 631.542.12

KBK 83.3(0)3

“Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Toshkent: MASHHUR PRESS, 2024. – 578 b.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan “Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi ushbu xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari olti bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida zamonaviy filologik tizimda adabiy ta’limning eng dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 dan ortiq maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirar:

I.G‘afurov – O‘zbekiston Qahramoni, San’at arbobi,

Y.Ergashev – O‘ZMU prorektori, professor

Tahrir hay’ati:

N.Hasanov, J.Jo‘rayev, Q.Husanboyeva, M.Umarova, G.Keldiyorova, D.Xatamova,

D.Qozoqboyeva, O.Hamroyeva, B.Turayeva, T.Matyoqubova

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

D.Qozoqboyeva, H.Boltaboyeva

Taqrizchilar:

X.Do‘stmuhamedov – filologiya fanlari doktori, professor;

Almaz Ulvi Binnetova – filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur Materiallar O‘zMU Ilmiy texnikaviy kengashining 2024-yil
27-sentabrdagi majlisida nashrga tavsiya etilgan (09-sonli bayonnoma)

ISBN 978-9910-674-30-3

© O‘zbekiston Milliy universiteti, 2024

© “MASHHUR PRESS”, 2024

MIRZO MEHDIXONNING “MABONIU-L-LUG‘AT” ASARIDA MORFEMALAR TAHLILI

Xolida ALIMOVA Zikrillayevna,
filologiya fanlari doktori.
TDSHU professori
xolidaxon66@mail.ru

Annotatsiya

Hazrat Navoiyning til xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan filologik asarlar orasida Mirzo Mehdixonning “Sanglox” lug‘ati va unga ilova qilingan grammatik ocherk “Maboniu-l-lug‘at” (“Til asoslari”) ajralib turadi. “Maboniu-l-lug‘at” eski o‘zbek tili grammatikasiga oid fors tilida yaratilgan birinchi qimmatli va to‘liq asardir.

Mirzo Mehdixon o‘zining “Sanglox” asarini 1760 (hijriy 1172-1173)-yilda yozib tugatgan. Dunyoda bu asarning to‘rt qo‘lyozma nusxasi mavjud. Asar nusxalaridan biri Gibb fondida, ikkinchisi Britaniya muzeyida, uchinchisi Bodleyana (Oksford)da, to‘rtinchisi Sulaymoniya kutubxonasi (Turkiya)da saqlanadi. Shuningdek, “Sanglox”ning qisqartirilgan nusxasining kopiyasi Parij Milliy kutubxonasida bor. Bu nusxa XIX asr boshida Abbos Mirzo uchun Muhammad Huveyyi tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, “Xulosa-yi Abbosiy” deb ataladi.

“Maboniu-l-lug‘at” 1910-yilda Kalkuttada ingliz sharqshunosi E. Denison Ross tomonidan Gibb fondida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi asosida litografiya usulida nashr qilingan bo‘lib, 1967-yilda O‘zbekistonda sharqshunos Z. Umarov tomonidan o‘rganilgan.

Asar muqaddima, tarsif va olti mabnodan iborat. Mabnolar boblarga, boblar rasmlarga bo‘linib, grammatik qoidalar o‘zlashtirilishini yengillashtirishga qaratilgan.

Mazkur maqolada to‘rtinchi mabnoda keltirilgan grammatik material yoritilgan. Bunda morfemalar (harf) va ma‘no yoki grammatik jihatdan ortiqcha bo‘lgan qo‘shimchalar (zavoyid) o‘rganilgan. Mavzu bayonida grammatik qoidalar misollar orqali dalillangan. “Maboniu-l-lug‘at” asaridagi grammatik material Mirzo Mehdixonni fors turkologi va o‘zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasi muallifi sifatida tanitadi.

“Maboniu-l-lug‘at” grammatik materialining tadqiqi o‘zbek tilining tarixiy grammatikasiga doir yechilmagan qator masalalarni hal qilish va o‘zbek tilining tarixiy grammatikasini tuzishda katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Mirzo Mehdixon, Sanglox, Maboniu-l-lug‘at, Navoiy, eski o‘zbek tili, chig‘atoy tili, tarsif, mabno.*

ИЗУЧЕНИЕ МОРФЕМИКИ В ТРУДЕ МИРЗЫ МЕХДИХАНА “МАБАНИ АЛ-ЛУГАТ”

Аннотация

Среди филологических трудов, посвященных изучению языка Мир Алишира Навои, особо выделяется словарь “Санглах” Мирзы Мехдихана с грамматическим очерком “Мабаниу-л-лугат” (“Основы языка”) (XVIII в.), который является первым ценным и по сравнению с другими, более полным, достоверным трудом по грамматике староузбекского языка.

Мирза Мехдихан свой филологический труд “Санглах” закончил в 1760 году (1172-1173 г.х.). Известно четыре списка этого сочинения Мирзы Мехдихана. Первый из них принадлежит фонду Гибба, второй хранится в Британском музее, третий – в Бодлеяне (Оксфорд), а четвертый – в библиотеке Сулаймания (Турция). Сокращенная копия

“Санглах” хранится в Национальной библиотеке в Париже. Она была переписана Мухамедом Хувейи для правителя Аббаса Мирзы, которая называется “Хуласа-йи Аббаси”.

Грамматическая часть “Мабаниу-л-лугат” “Санглах” впервые была издана литографическим способом английским востоковедом Э. Денисоном Россом в 1910 году в Калькутте по рукописи из фонда Гибба. Позже, в 1967 году был изучен в Узбекистане востоковедом З. Умаровым.

Очерк состоит из мукаддима (предисловия), тарсиф (грамматики) и шести мабна (разделов, основ), в каждой из которых описываются те или иные грамматические формы и явления.

В данной статье освещается грамматический материал четвертого мабна, в которой изучены морфемы (харф) и аффиксальный плеоназм (завойид). Автором уделяется особое внимание соответствующему подбору строф для доказательства грамматических правил, приводимых в изложении темы. Грамматический материал “Мабаниу-л-лугат” знакомит Мирзо Мехдихана как персидского тюрколога и автора первой научной грамматики узбекского языка.

Изучение грамматического материала “Мабаниу-л-лугат” имеет большое значение в разрешении ряда проблемных вопросов, связанных с историей узбекского языка и для составления исторической грамматики узбекского языка.

Ключевые слова: Мирза Мехдихан, Санглах, Мабаниу-л-лугат, Навои, староузбекский язык, чагатайский язык, тарсиф, мабна.

A STUDY OF MORPHEMICS IN THE MIRZA MEHDI KHAN'S WORK “MABANI AL-LUGAT”

Abstract

Among the philological works devoted to the study of Mir Alishir Navoi's language, Mirza Mehdi Khan's dictionary “Sanglakh” with a grammatical essay “Mabaniu-l-lugat” (“Basics of the Language”) (18th century) is particularly noteworthy. It is the first valuable and, in comparison with others, more reliable work on the grammar of the old Uzbek language.

In the year 1172-1173 of the Islamic calendar, Mirza Mehdi Khan concluded his philological work, entitled “Sanglakh”. Four folios of this work by Mirza Mehdi Khan are currently known to exist. The first of these is held by the Gibb Foundation, the second is located in the British Museum, the third is in the Bodleian Library at the University of Oxford, and the fourth is in the Sulaymaniye Library in Turkey. An abridged version of the Sanglakh is held at the Bibliothèque Nationale in Paris. The text was transcribed by Muhamed Huwayi for the ruler Abbas Mirza and is known as the “Hulasa-yi Abbasi”.

The grammatical section of “Mabaniu-l-lugat” “Sanglakh” was initially published in lithographic format by the English orientalist E. Denison Ross in 1910 in Calcutta, derived from a manuscript from the Gibb collection. Subsequently, in 1967, it was the subject of an investigation in Uzbekistan by the orientalist Z. Umarov.

The essay is divided into three sections: a preface, a grammar section, and six sections, or bases, which describe various grammatical forms and phenomena.

This article presents an analysis of the grammatical material of the fourth section, with a focus on the study of morphemes (harf) and affixal pleonasm (zavoyid). The author dedicates particular attention to the appropriate selection of stanzas, with the objective of substantiating the grammatical rules presented in the subject matter. The grammatical material of “Mabaniu-l-lugat”

introduces Mirza Mehdi Khan as a Persian Turkologist and the author of the first scientific grammar of the Uzbek language.

The study of the grammatical material of “Mabani’l-Lughat” is of great importance in solving a number of problematic issues related to the history of the Uzbek language and for compiling a historical grammar of the Uzbek language.

Keywords: Mirza Mehdi Khan, Sanglakh, Mabani’l-lughat, Navayi, Old Uzbek language, Chaghatay language, Tarsif, Mabna.

Hazrat Navoiyning til xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan filologik asarlar orasida Mirzo Mehdixonning “Sanglox” lug‘ati va unga ilova qilingan grammatik ocherk “Maboniu-l-lug‘at” (“Til asoslari”) ajralib turadi. “Maboniu-l-lug‘at” eski o‘zbek tili grammatikasiga oid fors tilida yaratilgan birinchi qimmatli va to‘liq asardir [Alimova, 2024: 425-434].

“Maboniu-l-lug‘at” va “Sanglox” asarlari eski o‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan filologik asarlarning eng mukammallaridan bo‘lib, ko‘pdan beri turkologlar diqqatini jalb etib keladi [Самойлович, 1927; Щербак, 1962: 57-59; Расулов, 1955: 65-71; Eckmann, 1942-1947: 156-222; Atalay, 1950; Menges, 1956: 627-739]. “Maboniu-l-lug‘at” 1910-yilda ingliz sharqshunosi E. Denison Ross [Denison Ross, 1910] tomonidan Kalkuttada litografiya asosida nashr qilingan bo‘lib, keyinchalik Z. Umarov tomonidan o‘rganilgan [Умаров, 1967]. “Sanglox” esa 1960-yilda J. Kloson tomonidan Londonda faksimile asosida nashr qilindi, keyingi yillarda Q. Muhitdinov tomonidan tekshirildi [Мухитдинов, 1971].

“Maboniu-l-lug‘at”¹¹⁹ quyidagi qismlardan tashkil topgan: 1) muqaddima; 2) tarsif; 3) olti mabno.

Muallif so‘zboshida «Sanglox»ning yaratilish sabablarini, muqaddima qismida «Sanglox»da foydalanilgan Alisher Navoiyning o‘n ikkita she‘riy va to‘qqizta nasriy asarini ko‘rsatib o‘tadi.

Birinchi mabno o‘n bobdan iborat bo‘lib, birinchi bob masdarlarga, ikkinchi bob o‘tgan zamon fe‘l formalariga, uchinchi bob hozirgi-kelasi zamon fe‘l formasiga, to‘rtinchi bob hozirgi zamon sifatdoshiga, beshinchi bob o‘tgan zamon sifatdoshiga, oltinchi bob buyruq mayliga, yettinchi bob buyruq maylining inkor shakliga, sakkizinchi bob fe‘lning bo‘lishsizlik formalariga, to‘qqizinchi bob hol-ravishdoshga, o‘ninchi bob formalar belgilarining qo‘shilishiga bag‘ishlanadi. Ikkinchi mabnoda fe‘l formalarining yasaliş xususiyatlari, uchinchi mabnoda olmoshlar va ko‘rsatish ismlari, to‘rtinchi mabnoda morfemalar, beshinchi mabnoda ko‘makchi fe‘l va frazeologik birikmalar, oltinchi mabnoda esa imlo qoidalari bayon qilinadi.

Grammatikaning xotima qismida Navoiy asarlarida ishlatilgan forsiy elementlar ko‘rsatilgan.

Mazkur maqolada to‘rtinchi mabno grammatik materiali o‘rganilgan. To‘rtinchi mabno mustaqil ravishda ma’no anglatmaydigan so‘zlar (morfemalar)ga bag‘ishlangan bo‘lib, *harf* termini bilan atalgan. Bu mabno uch bobga bo‘lib tekshirilgan¹²⁰: birinchi bob *ravobit*, ya’ni bog‘lag‘ichlarga, ikkinchi bob, *g‘ayr-i ravobit*, ya’ni ko‘makchilarga (bog‘lag‘ich bo‘lmagan) bag‘ishlangan.

Birinchi bob anglatgan ma’nosiga ko‘ra ikki qismni o‘z ichiga oladi. Birinchi qism *ravobit-i ta’diya*, ya’ni o‘timlilik bog‘lag‘ichlari deb atalib, qaratqich, tushum va jo‘nalish kelishigi affiks-laridan tashkil topgan.

Qaratqich kelishigi *-niy/-niy* affiksi bilan shakllanib, *robta-yi maf’ul*, ya’ni obyekt bog‘lag‘ichi deb ataladi:

¹¹⁹ Maqolada asarning E. Denison Ross nashridan foydalanilmoqda.

¹²⁰ Asarda uchinchi bob tushib qolgan.

يجه¹²¹ جورين تارتايين اول سرو حوريزاد نينک
يوق مودور پاياني آيا ظلم ايله بيداد نينک

*Nechä javrın tartayın ul sarv hurizādnıñ
Yoqmurdur pāyānı āyā zulm ilā bedādnıñ,
ya'ni qachongacha ul sarv hurizodning javrini tortaman, zulm bilan bedodlikning oxiri
yo'qmikin (79-bet).*

Tushum kelishigi نى -n/-ni, ن -n affiksi¹²² bilan shakllanib, *robta-yi maf'ul*, ya'ni obyekt bog'lag'ichi deb atalgan bo'lib, fors tilidagi را -ro ko'makchisiga to'g'ri kelishi aytilgan. Bunga dalil qilib quyidagi misol keltirilgan.

ديما اغزين غنچه قدين سروکيم ايل کورماميش
سرونينک رفتارينى يا غنچه نينک کفتارينى

*Demä ag'zın g'uncha, qaddın sarv-kim el körmämish,
Sarvınñ raftārını yā g'unchanñ goftārını,
ya'ni og'zini g'uncha, qaddini sarv demaki, xalq sarvning raftorini yoki g'unchaning
go'ftorini ko'rmagan (78-bet).*

Jo'nalish kelishigi غه -g'a, کا -gä, -kă affiksi bilan shakllanishi aytilib, fors tilidagi به *ba* old ko'makchisiga to'g'ri kelgani uchun *ba-ye ta'diya*, ya'ni o'timlilik *basi* termini bilan atalgan:

نامه شوقيم کيشي عرض ايلای الماس يارغه
بس غلط بولغای جواب ایتماک طمع مين زارغه

*Nāma-yi shavqım kishi arz äyläy almas yarg'a
Bas g'alat bolg'ay javāb etmāk tama' men zārg'a (80-bet).*

کوزکا تا کيردي خيالينک ساووق آهيم و همي دين
باغلاميش مين قوريا هر ساري مژکاندين انکا

*Közgü tā kirdi xayālın savuq āhım vahmıdın
Bag'lamış-men qurya har sarı mijgāndin aña (80-bet).*

Ikkinchi qism *ravobit-i g'ayr-i ta'diya*, ya'ni o'timsiz bog'lag'ichlar *üchün*, ايلان *ilä*, ايلان *ilän*, بيله *bilä*, بيلان *bilän*, برله *birlä*, برلان *birlän* deb atalib, ikki turga bo'lingan. Birinchi tur ko'makchilari دور *-dur/-dür*, دورور *-durur/-dürür* fe'l bog'lamsi, کيم *-kim* bog'lovchisi, ikkinchi tur esa to'liqsiz fe'l *ekän* ning turli affikslar yordamida yasalgan forma va variantlari ايدى *edi* / ايردى *erdi*, ya'ni edi, ايدينک *ediñ*, ايردينک *erdiñ*, ya'ni eding, ايدينکيز *ediñiz* / ايردينکيز *erdiñiz*, ايردوک *edük* / ايدوک *edim*, ya'ni edim, ايرديم *erdim*, ya'ni edingiz, ايردينکلار *ediñlär*¹²³ / ايردينکلار *erdiñlär*, ya'ni edingiz, ايديم *edim* / ايردوک *edük*, ya'ni edik, ايکان *ekän* / ايرکان *erkän*, ايکين *ekin*, ايرکين *erkin*, ya'ni -dir, bo'lsa, ايرکاج *ekäch*, ya'ni bo'lgach, ايرور *erür*, ya'ni bor, ايرماس *emäs* / ايرماس *ermäs*, ya'ni yo'q, bo'lmasa, ايرميش *emish* / ايرمانک *ermän*, ya'ni emassan, ايرمانک *emän* / ايرمانک *emän*, ya'ni emasman, ايرمان *emän* / ايرمان *emän*, ايرميش *ermish*, ya'ni bo'lgan, ايرسا *esä* / ايرسا *ersä*, ya'ni bo'lsin, agar bo'lsa, ايرسانک *esän* / ايرسانک *esän*, ya'ni ersangiz, agar bo'lsangiz, ايرسانکيز *esäniz* / ايرسانکيز *esäniz*, ya'ni ersangiz, agar bo'lsangiz, ايرسام *esäm* / ايرسام *ersäm*, ya'ni ersam, agar bo'lsam, ايرساک *esäk* / ايرساک *ersäk*, ya'ni esak, agar bo'lsak kabilarni o'z ichiga oladi. Asarda mazkur formalarga dalil qilib, quyidagi misollar keltirilgan:

هجر تيغى کوپ اوچون جسميما هريان چيکدى باش
ای نوایی مين مذلت طایری بودور پريم

Hajr tıg'ı köp üchün jismımda haryan chekdi bash

¹²¹ bo'lishi kerak.

¹²² -n affiksi ba'zan "вставочный" bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi: ag'zında, qaddında, ag'zida va qaddida so'zlarining sinonimidir.

¹²³ aidiñlär bo'lishi kerak.

Ey Navāyi men mazallat tāyiri budur parim (80-bet).

لیلی که ایدی عرب بلاسی
هم بار ایدی قیس مبتلاسی

Layli-ki edi arab balası

Ham bar edi Qays muhtalası (81-bet).

ایماس غم شامی انجم قطره لار آهیم تفیدین بیل
نی تانک کونکوزکوسین کر تیره قیلسا اوشبو نم بیر کون

Emäs g'am shāmu anjum qatralar āhım tafıdın bil

Ne tañ kün közgüsın gar tiyra qılsa ushbu dam bir kün (82- bet).

Ikkinchi bobda “harflar”ni so‘zlarga qo‘shilish tartibiga ko‘ra ikki qismga bo‘lib tekshirilgan. Birinchi qism ikki turdan tashkil topgan. Birinchi tur qiyosiy bo‘lib, *ne*, نیدور *nedür*, ya‘ni *nima* so‘roq so‘zlari kiritilgan. Bunga dalil qilib, muallif quyidagi baytni keltirgan:

ایله فانی بول که دامنکیرینک امکان بولماغای
کیم ای تاک موجود اکر یوقتور نی نی توتغای ایلیک

Äylä fāni bul-ki dāmangirıñ imkân bolmag‘ay

Kim etäk mavjud agar yoqtur neni tutg‘ay elig (82-bet).

Ikkinchi tur¹²⁴ samoiy bo‘lib, qisman reduplikatsiya yo‘li bilan yasaluvchi sifat formalarini o‘z ichiga oladi: *ap-ag*, ya‘ni juda oppoq, ساپساریغ *sap-sarıg*, ya‘ni juda sariq, *qap-qara*, ya‘ni qop-qora, قپ قیزیل *qip-qızıl*, ya‘ni qip-qizil, *köm-kök*, ya‘ni ko‘m-ko‘k, یاپ یاشیل *yap-yāshil*, ya‘ni yam-yashil, یاپ یاسی *yap-yassı*, ya‘ni juda yassi, *top-tüz*, ya‘ni juda tekis, *top-tog‘rı*, ya‘ni juda to‘g‘ri, *tip-tik*, ya‘ni juda tik, ساپساغ *sap-sag*, ya‘ni juda sog‘.

Ikkinchi qism bildirgan ma‘nosiga ko‘ra ikki bayondan tashkil topgan. Birinchi bayon o‘z navbatida ikki turga bo‘lib tekshirilgan. Birinchi tur qiyosiy bo‘lib, shart affiksi *-sa/-sä* va uning qo‘llanishi, so‘roq yuklamasi *-mu*, ya‘ni *-mi*, chiqish kelishigi affiksi *-dm/-din*, ya‘ni *-dan*, o‘rin-payt kelishigi affiksi *-da/-dä*, ya‘ni *-da* ni o‘z ichiga oladi.

ای نوایی جانینک آلغوم دور دیسا قایغور ماغیل
جانغه منت قیل مونونک بیرله کر ایلتسا اکتفا

Ey Navāyi jānıñ alg‘umdur desä qayg‘urmag‘ıl

Jāng‘a minnat qıl munuñ birlä gar etsä iktifā (83-bet).

می بیرله یوزونک تیم تیم احمر مو ایکیں آیا
یا شعله آرا بیر بیر اخکر مو ایکیں آیا

May birlä yüzüñ tım-tım ahmar-mu ikin āyā

Yā shu‘la arā bir-bir axgar-mu ikin āyā (84-bet).

اول پری محبوب بولغای دیب مینی دیوانه دین
چغذ دیک چیقمان تون و کون کوشه ویرانه دین

Ul pari mahbub bolg‘ay dep meni devānadın

Chug‘z-deg chıqman tün-u kün gusha-yi vayrānadın (85-bet).

یر توتغالی اول کافر خودکام کونکولدا
یوق میندا کونکول ایله که آرام کونکولدا

Yer tutg‘alı ul kāfir-i xudkām köñüldä

Yoq mendä köñül äylä-ki ārām köñüldä (85-bet).

Ikkinchi tur *-cha/-chä* affiksi va uning yordamida yasalgan *ardıcha*, سونکیچه *soñıcha*, نیچه *soñıncha*, *getichä*, ya‘ni ortidan, *özgächä*, ya‘ni boshqacha formalarini, *nechä*, ya‘ni necha, harchand, nechta so‘zini o‘z ichiga oladi.

¹²⁴ Ikkinchi o‘rniga oltinchi deb noto‘g‘ri yozilgan.

نوایا ایرور اول شوخ ترکمان بس تند
نوا تیلار ایسانک آندین یوکورمه اردیچه چرخ

Navāyiyā erūr ul shox-i türkmän bas tond
*Navā tılar esāñ andın yügürmä **ardıcha** charx (86-bet).*

النفات ایتی بوکون مین قولغه اول شاه اوزکچه
اوزکچه انکلاب مین اوز حالیمنی بالله اوزکچه

İltifāt etti bu kün men qulg‘a ul shāh özgüchä
Özgüchü aqlap men öz hālını billah özgüchü (86-bet).

طریق عشق ارا اوزنی چو فرد قیلسا بیراو
حریف ایماس انکا یرکوک نچه ایرور لار ایکاو

Tariq-i ishq arā özni chu fard qılsa biräv
*Harif emäs aña yer-kök **nechü** erürlär ikäv (87-bet).*

İkkinchi bayon hamma yerda bir xil imlo bilan yozilib, ism ma'nosini ifodalovchi affikslardan tashkil topgan bo'lib, ikki turga bo'lingan. Birinchi tur qiyosiy bo'lib, imlo jihatidan ikki xildir. Birinchi xili hamma yerda bir xil imloga ega bo'lgan jamlovchi son yasovchi *-av/-äv* (birdan to'qqizgacha qo'shilishi aytilgan), tartib sonlar ko'rsatkichi *-nchi /-inchi*, sifatning intensiv formasini yasovchi *-mtul*, o'rin-joy va mo'llik ma'nosini bildiruvchi *-lag* / *-laq*, o'xshashlik ma'nosini bildiruvchi sifat, uchinchi shaxs buyruq fe'li formasini yasovchi *-deg* affiksi, birgalik, hamkorlik ma'nosini ifodalovchi *-dash* / *-tash* affikslarini o'z ichiga oladi. *biräv*, ya'ni biri, birov, *ikäv*, ya'ni ikkisi, *birinchi*, ya'ni birinchi, *ikkinchi*, ya'ni ikkinchi, *ag'imtul*, ya'ni oqishga moyil, *qızımtul*, ya'ni qizilga moyil, *qaramtul*, *yashımtul* qaramtul, *tuzlaq*, ya'ni tuzloq, *avlaq*, ya'ni ov ko'p bo'lgan er, *qışlaq*, ya'ni qishda yashaladigan joy, *gulzār-deg*, ya'ni gulzordek, *gulzorga* o'xshash, *ruxsār-deg*, ya'ni yuzga o'xshash, *bardik*, ya'ni borsin, *asradik*, ya'ni asrasin, *salg'u-deg*, ya'ni tashlanadigan, *qozg'alg'u-deg*, ya'ni yo'qoladigan, aralashib ketadigan, *yoldash*, ya'ni hamroh, *qarımtaş*, ya'ni qarindosh, hamqorin, *kökältäsh*, ya'ni ko'krakdosh. Mazkur misollar bildirgan ma'nolarga dalil sifatida quyidagi baytlar keltirilgan:

طرفه رخسارینک که حسن ایچرا ایرور کلزاردیک
طرفه راق بودور که کلزار ایرماس اول رخساردیک

*Turfa ruxsārın-ki husn ichrā erūr **gulzār-deg***
*Turfaraq budur-ki gulzār ermäs ul **ruxsār-deg** (88-bet).*

تیلبه کونکومنی نوایی ضبط ایلائی المادینک
ایمدین چیک آندین الیک هرساری بارسا باردیک

Telbä köñlümni Navāyi zabt äyläy almadın
*Emdin chek andın elig har sarı barsa **bardik** (88-bet).*

Affikslarning ikkinchi xili o'rniga ko'ra turli imloga ega bo'lgan chog'ishtirma sifat ko'rsatkichi *-rag* / *-rāk*, nisbiy sifat yasovchi *-qı* / *-g'ı*, *-ki*, *-gi*, *kichraytish-erkalash* ma'nosini ifodalovchi *-g'ina* / *-ginä*, ot va nisbiy sifat yasovchi *-lıq* / *-lig* / *-lik*, *-luq* / *-lūq*, *-lūk* affikslaridan tashkil topgan: *andag'ı*, ya'ni u yerdagi, *yılqı*, ya'ni yilgi, *kechägi*, ya'ni kechki, *mundag'ı*, ya'ni bu yerdagi, *ösrukginä*, ya'ni bir oz mast kabi.

İkkinchi turi samoiy bo'lib, ko'rsatish olmoshlariga qo'shilib sifat yasovchi *-daq*, *-chaq* / *-lān* / *-län*, *-la* / *-lä*, *-duruq*, birgalikni ifodalovchi *-chäk*, qurol oti yasovchi, *andaq*, ya'ni o'shanday, *mundaq*, ya'ni shunday, *biyondorur*

“Maboniu-l-lug‘at”da ر -ar /-är¹²⁵ -dur /-dür, تور -tur /-tür, تۈك -tük, چى -chi /-chi, سى -si /-si, ش -sh, نىنك -niñ /-niñ, نونك -nun /-nün, غيل -g‘ıl /-gil, ليغ -lıq /-lıq, لا -la /-lä, ن -n, -m /-in affiksleri hamda ايكان *ekän* / *erkin* to‘liqsiz fe‘li *zoyida*, ya‘ni grammatik ma‘noga ega bo‘lmagan morfemalarga kiritilgan. Bular so‘zlar bilan birikib, hech qanday ma‘no anglatmasliklari mumkin deb tushuntirilib, so‘zlar mazkur morfemalar qo‘shilishidan oldin qanday ma‘no anglatgan bo‘lsa, qo‘shilgandan so‘ng ham shunday ma‘no anglatishi qayd qilingan: بىرر *birär*, ya‘ni bir, اوچار *üchär*, ya‘ni uch, تورتار *törtär*, ya‘ni to‘rt, يوزار *yüzär*, ya‘ni yuz, بلادورسىز *baladursız*, ya‘ni balosiz, زاروبينوادورسىز *zār-u benavādursız*, ya‘ni zor va benavosiz, مىنك يىلجى لىق *miñ körgüzüptürbiz*, ya‘ni ko‘rgazganmiz, كوركوزوب بىز *körgüzüpbiz*, ya‘ni ko‘rgazganmiz, مىنك يىلجى لىق *miñ yillıq*, ya‘ni ming yillik چىرىك *cherigchi*, ya‘ni askar, چىرىك *cherig*, ya‘ni askar, قوروماق *qurumaq*, ya‘ni qurimoq, قوروشماق *qurushmaq*, ya‘ni ortuq, ارتوق *artuqsı*, ya‘ni ortuqsı, ياروشماق *yarushmaq*, ya‘ni yorimoq, كوزونك اليدا *közün allıda*, ya‘ni ko‘zing oldida, الغيل *alg‘ıl*, الماغيل *almag‘ıl*, كىلگىل *kelgil*, كىلماگىل *kelmägil*, قرارىندا *intizārında*, ya‘ni intizorida, انتظارىندا *ölmäklik*, ya‘ni o‘lmoq, اولماكلىك *qarārında*, ya‘ni qarorida, سىزسىزىن *sizsiniz*, ya‘ni sensiz¹²⁶, سىزسىز *sizsiz*, ya‘ni sensiz, سىن ايكان سىن *sen bir-bir*, ya‘ni bir-bir, بىر بىر *birin-birin*, بىرىن بىرىن *ansız*, ya‘ni usiz, انسىز *ansızın*, ya‘ni sensan.

Mazkur misollar anglatgan ma'nolarga dalil qilib quyidagi parcha va baytlar keltirilgan:

کیم خلق دین یوزار یوزار کیشی ایریب بویوردی کیم کینت لار یاسادیلار

*Kim xalqdın **yüzär-yüzär** kishi ayırıp buyurdı-kim, kentlär yasadılar (91-bet).*

نسترن کوزکوسیدا بیر ساری مین بیر ساری یار
چهره عکسین کورکوزوبتور بیز کل رعنا ایماس

Nastaran közgüsidä bir sarı men bir sarı yār

*Chehra aksın **körküzüptür** biz qul-i ra'nā emās* (92-bet).

لیک سیز مینک بیلجی لیغ اندین یراق
قالیسی مینک بیل لبق که امکاندین یراق

Lek siz min yılchılıg' andın yıraq

Qalısı minṣ yillıq ki imkāndin yıraq (93-bet).

کیم اوتلاریدین جهان یاروشتی
خرمن لاریغه بو شعله توشتی

Kim otlarından jihān yarushtu

Xarmanlarig'a bu shu'la tushti (94-bet).

جور و ظلمونک کرچه اولماکلیک نشانی دور منکا
چونکه سین دین دور حیات جاودانی دور منکا

*Javr-u zulmun qarchi **ölmäklik** nishānidur menā*

Chunki sendindür hayāt-i jāvidānidur menā (95-bet).

¹²⁵ -*shar* / -*ar* /-*är* affiksi -*i* unlisi bilan tugallangan sonlarga (*yigirmi kabi* يیکرمی، *yetti* يتى، *altı* التى، *ikkı* ايکى) *shār* shaklida qo‘shilishi qayd qilingan. Masalan: *yigirmishār* يیکیرمیشار، *yettishār* يئتیشار، *altushar* التیشار، *ikkishār* اکیشار. Bu shakl hozirgi zamon tatar tilida bor.

¹²⁶ Sizsiz bo'lishi kerak.

بیرای اوتتی مینی محزونغه بیرای انتظاریندا
که نی کونکولوم ایرور هوشیندا نی صبریم قراریندا

Bir ay ötti meni mahzung'a bir ay intizārında
Ki ne köñlüm erür hushında ne sabrım qarārında (95-bet).

زلفونک کیم ایرور توکون کویا
ایل بولدی بیرین بیرین کرفتارینک

Zulfuñ kim erür tügün goyā
El boldı birin-birin giriftārın (96-bet).

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Mehdixonning “Maboniu-l-lug‘at” grammatikasi o‘zbek tili grammatikasiga oid yaratilgan birinchi qimmatli va to‘liq asardir. O‘quvchi mazkur asar materialini o‘zlashtirgach, “Sanglox” lug‘atidan to‘g‘ri foydalana oladi va Alisher Navoiy asarlarini o‘qib tushunishi mumkin bo‘ladi. Qolaversa, uning tadqiqi o‘zbek tilining tarixiy grammatikasiga doir yechilmagan qator masalalarni hal qilish va o‘zbek tilining tarixiy grammatikasini tuzishda yordam beradi. “Maboniu-l-lug‘at” mumtoz o‘zbek tilining fonetik, grammatik xususiyatlarini va turkiy tillar haqidagi fors grammatika fani tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Besim Atalay, 1950. Mirza Mehdi Mehmet Han. Senglah. Lugat-i Nevai. – Istanbul. – 181 s.
2. Denison Ross, 1910. The Mabani’-Lughat being a Grammar of the Turki Language in Persian by Mirza Mehdi Khan, Bibliotheca Indica, New Series, No. 1225, Calcutta. – 142 p.
3. Eckmann J., 1942-1947. Mirza Mehdis Darstellung der tschagataischen Sprache. – Analecta Orientalia memorial Al. Csoma de Körös dicata. – Budapest. – pp.156-222.
4. Menges K.N., 1956. Das Cagatajische in der persischen Darstellung von Mirza Mahdi Han. – Mainz. – pp. 627-739.
5. Zikrilayevna Alimova, K., 2024. Mirzo Mehdikhan’s work "Maboniu-l-lug‘at" and its place in turkology. Oriental Journal of Philology, 4(03), 425–434. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-04-03-56>
6. Алимова, Х.З., 2020. Substantivization of participles in the dari language. Иностранные языки в Узбекистане, (5), 1-10 p.
7. Мухитдинов К., 1971. “Санглах” Мирзы Мухамеда Мехдихана (Исследование, комментарии, перевод и транскрипция): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 17 с.
8. Расулов Р., 1955. Ўзбек тилини ўрганиш тарихидан. – Ученые записки Андиганского госпединститута. – Андиган, № 2. – Б. 65-71.
9. Самойлович А.Н., 1927. Персидский тюрколог XVIII века Мирза Мехди-хан // Известия Общества обследования и изучения Азербайджана. № 5. – Баку. – 4 с.
10. Умаров З.А., 1967. Грамматика староузбекского языка “Мабани ул-лугат” Мирзы Мехдихана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент. 27 с.
11. Щербак А.М., 1962. Грамматика староузбекского языка. – Москва-Ленинград: АН СССР. – 277 с.

MUNDARIJA

I.U.MADJIDOV. ADABIY TA'LIM METODOLOGIYASI: XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK SAMARALARI (So'zbojshi o'rnida).....	3
3-шўъба. ЖАДИДЧИЛИК ТАРИХИ ВА ЖАДИД АДАБИЁТИ	
Temur Xo'ja O'g'li. GERMANIYADA TURKISTON ADABIYOTI: 1923-1944.....	7
Камолиддин ШАМСИДДИН. КУЛЬТУРНАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ПРОГРАММА ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНА.....	13
Ahat A.ANDICAN. SOVYETLER BIRLIĞI'NIN DAĞILMA DÖNEMİNDE TÜRKİYE'DEKİ TÜRKİSTAN DİASPORASININ FAALİYETLERİ.....	20
Саидахроф ҒУЛОМОВ. ЖАДИДЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	31
Seyfettin ERŞAHİN. ÖZBEK CEDİDCİLERİN AHLÂK EĞİTİMİNE DAİR METİNLERİNİN MUHTEVA TAHLİLİ: A. AVLANÎ'NİN TÜRKÎ GÜLİSTAN YAHUD AHLÂK ÖRNEĞİ.....	40
Yashar QOSİM. ISTIQLOL KUYCHILARI: AHMAD COVOD VA ABDULHAMİD CHO'LPAN POEZIYASI QIYOSIY-TIPOLOGİK TAHLİL KONTEKSTIDA.....	63
Filiz MELTEM. ABDULLA AVLANÎ'NİN TÜRKÎ GÜLİSTÂN YÂHÛD AHLÂK ADLI ESERİNDEKİ İYİ HUYLAR İLE İLGİLİ ŞİİRLERİ VE BU ŞİİRLERİN İÇERİK VE DİL BAKIMINDAN İNCELENMESİ.....	73
Münevver TEKCAN. EDUCATIONAL REFORM ACTIVITIES IN TURKESTAN-UZBEK JADIDISM.....	83
Muqaddas TOJIBOYEVA. MO'MINJON TOSHQIN ASARLARIDA MA'RIFIYMASALALAR VA ULARNING BADIY TALQINI.....	91
Абдулла УЛУҒОВ ЗАМОНДОШЛАРИ ОРАСИДА ТЕНГСИЗ.....	97
Kemal ATAMAN. TÜRKİSTAN CEDİT HAREKETİNİN GLOBAL ANALİZİ.....	105
Rustam SHARIPOV. MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ("TURKISTON MADANIY MUXTORIYATI LOYIHASI" MISOLIDA).....	110
Минҳожиддин ҲОЖИМАТОВ. Ю АБДУРАУФ ФИТРАТ АСАРЛАРИДА ТАРИХИЙ ВА БАДИИЙ ҲАҚИҚАТНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ.....	118
Қидир ТЎРАЛИ. XX АСРНИНГ БОШЛАРИДА «УЙҒОНИШ» ШИОРИ ОСТИДА НАШР ЭТИЛГАН УЧ КИТОБНИНГ ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	124
Aida BABUTCU. CƏDİTÇİ VƏDUD MAHMUDUN "FÜZULİ BAĞDADİ" MƏQALƏSİ HAQQINDA.....	131
Xamidulla TADJIYEV. QOZOQ ADABIYOTIDA MA'RIFIY G'OYALARNING YANGILANISHI (XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARI).....	133
Sherali QO'LDASHEV. SHARQIY TURKISTONDA JADIDCHILIK G'OYALARINI TARQALISHIDA O'ZBEK ZIYOLILARINING ISHTIROKI.....	139
Раҳматулла БАРАКАЕВ. АБДУЛЛА АВЛОНИЙ АСАРЛАРИДА ОНА-БАТАН МАВЗУИ.....	144
Xurshida JALILOVA. MA'RIFATCHILIK ADABIYOTIDA SAYOHATNOMA JANRINING POETIKASI (INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFATCHILIGI ADABIYOTI ASOSIDA).....	150

Salima JUMAYEVA. IKROM OTAMUROD DOSTONLARIDAGI POETIK ASOSNING HAYOTIY VA FALSAFIY TALQINLARI.....	332
Şahnaz SƏFİBƏYLİ. ZÜLFİYYƏ POEZİYASINDA AZƏRBAYCAN MÖVZUSU.....	340
Nadira MATMUSAYEVA. SHODAT ISAXONOVA IJODIDA AYOL RUHIY OLAMINING TASVIRI.....	343
Нилуфархон ЮЛДАШЕВА. АВТОРСКОЕ «Я» В РАССКАЗЕ «ИСТОРИЯ С ВАРИАЦИЯМИ» ИЛЬДАРА АБУЗЯРОВА.....	349
Nodira XOLIKOVA. CHO‘LPONNING “O‘ZBEK QIZI” OBRAZIDA TURKISTON FOJEIY QIYOFASI TASVIRI.....	356
Guljahan SEITNAZAROVA. OCHERKNAVIS MAHORATI: OCHERKDA JANR, MAVZU, G'OYA VA OBRAZ YAXLIDLIGI.....	363
Odil YOQUBOV. OYBEK SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON RUHIY KECHINMALARI TASVIRI.....	368
5-sho'ba. ADABIY ASARNING LISONIY VA USLUBIY TAHLILI	
Yusuf AVCI, Fatih KANA, Arda KÖROĞLU. TÜRK DÜNYASINDA DİL BİLGİSİ ÖĞRETİMİ: TÜRKİYE VE ÖZBEKİSTANDAKİ ANA DİLİ DERS KİTAPLARININ İÇERİK BAKIMINDAN KARŞILAŞTIRMASI.....	374
Selahitdin TO‘LQIN. GENEL TÜRKÇEDE İSİM ÇEKİM EKLERİNİN KULLANIMINDA GÖRÜLEN İSTISNAI DURUMLAR.....	376
Xolida ALIMOVA. MIRZO MEHDIXONNING “MABONIU-L-LUG‘AT” ASARIDA MORFEMALAR TAHLILI.....	382
Махмуд РАВШАНОВ. АНТРОМОМОРФНОСТЬ МЕТАФОРЫ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА.....	390
Gulchehra KELDIYOROVA. ALLYUZIYA MATN EKSPRESSIVLIGINI YARATUVCHI VOSITA SIFATIDA.....	395
Alisher UBAYDULLAYEV. BARQAROR BIRIKMALARNING BADIY MATNDAGI O‘RNI.....	402
Nafisa YUSUPOVA. FORS TILIDAGI GAPIRUV-IFODALOV FE‘LLARINING LEKSIK-SEMANTİK TAHLILI.....	409
Mirzəli MƏLEYKƏ. XƏZƏR XAQANLIĞI VƏ XƏZƏR DİLİ.....	417
F.FAIZOVA. ISM MADANIYATI BELGI ELEMENTI SOFATIDA.....	425
Kumushoy QURBANOV. XIVALIK JADID MULLA BEKJON RAHMON IJODIDA TIL VA IMLO MASALALARI.....	431
Ozoda SHARİPOVA. “VATAN” KONSEPTI KOMPONENTLI PAREMALARDA BIONİMİK KO‘CHIM VA O‘XSHATISHLAR SEMANTİKASI.....	436
Mahliyo XOLMO‘MINOVA. VATAN KONSEPTINING REALİYALAR BILAN BOG‘LIQLIGI.....	441
Shahnoza NAZAROVA. JAHON TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY ETIKET (“POLİTENESS”)NİNG İLMİY-NAZARİY ASOSLARI VA TAMOIYILLARI.....	446
Наргизахон ВАЛИЕВА. ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЗЫ ХАЛЛЕДА ХОССЕЙНИ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «БЕГУЩИЙ ЗА ВЕТРОМ»).....	452
Гулнара АҚЫЛБЕКОВА. ЛИНГВОМАДАНИЯТТАГЫ ОБЪЕКТИВДЕШТИРИЛГЕН «ТАБУ» КОНЦЕПТИ.....	458